

“Issiqlik Elektr Stansiyalari” AJ
(integratsiyalashgan hisobot)

BIZNES
PLAN
2024



1. Mundarija

1. Tarkib va tahrirat siyosati
2. Boshqaruv raisi murojaati
3. Missiya va qarashlar
4. Korxonalar tarixi
5. Asosiy faoliyat
6. Bozordagi ulushi va marketing rejasi
7. Ishlab chiqarish ma'lumot
8. Qiymat yaratish jarayoni - Biznes modeli va strategiyasi
9. 8.(1). Investitsiya loyihalari
10. 8.(2). Investitsion loyihalar bo'yicha hamkorlar.
11. 8.(3) Investitsiya loyihalari-Kogeneratsiya
12. 8.(4) Raqamli transformatsiya(DX)-ERP ("Enterprise Resource Planning")
LOYIHANI AMALGA OSHIRISH MUDDATLARI
13. 8.(5) Qayta tiklanuvchi energiya manbalari-1
14. 8.(6) Qayta tiklanuvchi energiya manbalari
15. 9. Biznes modeli va strategiyasi uchun "Issiqlik Elektr Stansiyalari"
AJning muxim masalalari
16. 9.(1) Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi -1
17. 9.(2) Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi – 2
18. 9.(3) Inson resurslari
19. 9.(4) Xavfsizlik va ishchilar himoyasi himoyasi
20. 9.(5) Mahalliy jamiyat bilan hamkorlik
21. 9.(6) mahalliy jamiyat bilan hamkorlik
22. 9.(6-1) "IES "AJ faoliyatidan lavhalar
23. 9.(6-2) "IES "AJ faoliyatidan suratlar
24. 9.(7) Korporativ boshqaruv
25. 9.(8) Biznes asoslarini mustahkamlash - Risklarni boshqarish
26. 10. Moliyaviy ko'rsatkichlar*
27. 11. Faoliyat va ko'rsatkichlar*
28. 12.Moliyaviy ma'lumotlar
12.(1) Foyda yoki zarar va boshqa to'liq daromad to'g'risidagi konsolidatsiyalangan hisobot
29. 12.(2) Moliyaviy holat to'g'risidagi konsolidatsiyalangan hisobot
30. 12.(3) Pul oqimlari to'g'risidagi konsolidatsiyalangan hisobot
31. 12.(4) Kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi konsolidatsiyalangan hisobot



Tahrirat siyosati:

1. Hisobotning maqsadi - IES AJning joriy faoliyati va istiqboldagi rejalarini to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish.
2. Hisobot Xalqaro Integratsiyalashgan Hisobot Kengashi (IIRC) doirasidagi Atrof-muhitni ijtimoiy boshqarish (ESG)ni oshkor qilish standartlariga asoslanadi.
3. Ushbu hisobotda ochiqqlangan ko'rsatkichlar hisobotlar topshirilgandan keyin o'zgarishi mumkin.

Hisobot doirasi/Statistika	IES AJ tarkibidagi korxonalar uchun
Amal qilish davri	1 yil
Ma'lumot uchun qo'llanma	IIRC (Xalqaro Integratsiyalashgan Hisobot Kengashi) shakli
Bog'lanish uchun ma'lumot	Manzil: 100097, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Bunyodkor shoh ko'chasi, 23-uy. Rasmiy veb-sayti: www.tpp.uz Elektron pochta: info@tpp.uz
Investorlar uchun telefon raqam	(+998) 71-276-48-03

2. Boshqaruv raisi murojaati



Murojaatning qisqacha mazmuni:

“...biz xodimlar, ularning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar huquqlari va erkinliklarini hurmat qilamiz va turli masalalarni “bir jamoa” sifatida faol ravishda hal qilamiz... Biz doimo ochiqmiz va muloqot hamda hamkorlikka tayyormiz...”

“Issiqlik Elektr Stansiyalari” AJ yuqori ko’rsatkichlarga erishdi. Bu moliyaviy va boshqa ko’rsatkichlarga erishishda har bir boshqaruvchi, mutaxassis, elektr energiyasini ishlab chiqarish va boshqa biznes sohalarimizda bevosita ishtirok etgan butun jamoamiz katta hissa qo’shdi.

Endi, kelajakda biz O’zbekistonda energiyaga bo’lgan talabning o’sishiga tayyorgarlik ko’ramiz va karbonat angidrid gazi (CO₂) chiqindilarini kamaytirish bo’yicha mukammal bo’lgan samarali energoqurilmalarni qurish va ulardan foydalanishni davom ettiramiz. Shuningdek, biz qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish orqali tabiiy resurslardan samarali foydalanishga barcha sa’y-harakatlarni amalga oshiramiz. Albatta, biz xodimlar, ularning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar huquqlari va erkinliklarini hurmat qilamiz va turli masalalarni “bir jamoa” sifatida faol ravishda hal qilamiz. Barcha manfaatdor tomonlarga va iste’molchilarga hamkorlik va korporativ faoliyatimizni tushunganligingiz uchun minnatdorchilik bildiramiz. Biz doimo ochiqmiz va muloqot hamda hamkorlikka tayyormiz.



3. Missiya va qarashlar

Missiya

- Mamlakat iste'molchilariga uzluksiz va sifatli elektr energiyasini yetkazib berish
- Energiya samaradorligini oshirish maqsadida uskunalarni modernizatsiya qilish
- Operatsion samaradorlikni oshirish orqali xarajatlarni kamaytirish.



Qarashlar

- Rivojlangan va inovatsion energiya korxonasi bo'lish;
- Zararli CO2 moddalarini chiqarilishini kamaytirish;
- Yangi energiya tejoyvchi texnologiyalar va ekologik usullarni joriy etish;
- Raqamli transformatsiyani (RT) rivojlantirish;
- Muqobil energiya manbalaridan foydalanishni oshirish.



4. Korxonalar tarixi



Maqsad / Biznes falsafasi
Ilg'or va muvaffaqiyatli energetika kompaniyasiga aylanish hamda yuqori malakali mutaxassislarimiz bilan birgalikda Respublikamiz iste'molchilarini ishonchli elektr va issiqlik energiyasi bilan ta'minlash


Qisqa tarixi

1909-yilda Toshkentda 1450 kVt quvvatga ega dizel elektr stansiyasi qurildi.

1934-yil 25-sentabrda O'zbekiston energetika tizimini boshqarish organi tashkil etildi.

1966-yilda Sirdaryo IES - O'zbekistonning Sirdaryo viloyati Shirin shahrida Markaziy Osiyodagi eng yirik elektr stansiyasi (o'rnatilgan quvvati 3,000 MVt) issiqlik elektr stansiyasi qurildi.


2019-yilda qayta tashkil etilgan "O'zbekenergo" AJ negizida mamlakatimizning elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqaruvchi issiqlik elektr stansiyalari va elektr stansiyalarini boshqarish funksiyalari yuklangan holda "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ tashkil etildi (<https://www.tpp.uz/uz/page/today-ies>).



5. Asosiy faoliyat


Asosiy faoliyat

“Issiqlik Elektr Stansiyalari” AJ O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot tarmoqlari va aholi ehtiyojlarini qondirish uchun elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish funksiyasini bajaradi hamda 4 ta issiqlik elektr stansiyalari, 3 ta issiqlik elektr markazlari, 1 ta issiqlik markazi va 3 ta xizmat ko‘rsatish korxonalarini o‘z ichiga oladi.



6. Bozordagi ulushi va marketing rejasi

2024 yil rejasi



7. Ishlab chiqarish ma'lumotlari



Operatsion natija – Elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarish va yetkazib berish

№	Nomi	Quvvat, MVt	2024 (kutlayotgan) million kVt/soat
1	"Sirdaryo IES"	3 215	8 394,0
2	"Farg'ona IEM"	329	350,0
3	"Muborak IEM"	60	254,3
4	"Toshkent IEM"	57	541,9
5	"Talimarjon IES"	1 700	6 857,5
6	"To'raqo'rg'on IES"	900	6 647,10
7	"Angren IES" AJ	393	1 164,6
Jami		6 654	24 209,3

№	Nomi	Quvvat, Gkal	2024 yil (kutlayotgan) ming Gkal
1	"Sirdaryo IES"	-	107,4
2	"Farg'ona IEM"	1449	820,0
3	"Muborak IEM"	376	1 323,6
4	"Toshkent IEM"	828	1 607,9
5	"Talimarjon IES"	-	24,4
6	"Angren IES" AJ	278	2,0
7	"To'raqo'rg'on IES"	-	350,0
8	"Toshkent IM" MCHJ	4580	8 114,0
Jami		7 511	12 349,3

2024-yilda elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha reja **24 209,3 mln.kVt/soatni** tashkil etadi.

2024-yilda rejalashtirilayotgan issiqlik energiyasini uzatilishi **12 349,3 ming Gkal.**

8. Oqiyat yaratish jarayoni - Biznes modeli va strategiyasi



KAPITAL

Ishlab chiqarish kapitali:

Ishlab chiqarish quvvati 6 654 MVt
Issiqlik energiyasi quvvati 7 511 Gkal/soat



Tabiiy resurslar:

Mahalliy tabiiy gaz bilan ta'minlanganlik
Qayta tiklanadigan energiya manbalarini
kengaytirish imkoniyati mavjud

Moliyaviy kapital:

2023 yilda 615,2 mlrd. so'mlik
investitsiyalar o'zlashtirildi.
2022 yilda 1 734,1 mlrd.so'm
(MHXS) sof foyda olindi



Ijtimoiy munosabatlar kapitali

Sport, madaniy va ko'ngilochar
tadbirlarni tashkillashtirish
Jamiyat bilan hamkorlik
Xodimlar bilan doimiy muloqot



Inson va intellektual kapital

Xodimlar- 9 071 kishi
Yosh mutaxassislar- 1 489 kishi
Zamonaviy malaka oshirish markazi



BIZNES MODEL VA STRATEGIYASI

RIVOJLANISH STRATEGIYASI

Elektr energiyasi ishlab
chiqarish

Elektr energiyasini ichki
tarmoq iste'molchilarga sotish

Issiqlik energiyasini yirik
iste'molchilar va qayta
sotuvchilarga sotish

Elektr uskunalarin sozlash
va ta'mirlash xizmatlarini
ko'rsatish

Quyosh suv isitgichlarini
ishlab chiqarish va sotish

Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan ishlab
chiqarilgan elektr energiyasini sotish

Investitsion loyihalar

Inson resurslari, atrof-muhit, xavfsizlik va mahalliy jamiyat bilan
hamkorlik (9(3), 9(4), 9(5)-slydlarga havola qilingan)

Biznes asoslarini mustahkamlash

Moliyaviy va nomoliyaviy
ko'rsatkichlar
(10- va 11-slydga havola
qilingan)

Korporativ boshqaruv
(9(7)-slydga havola
qilingan)

Risklarni boshqarish
(9(8)-slydga havola
qilingan)

2024 YILDAGI ASOSIY MAQSADLAR

Ishlab chiqarish maqsadi

Elektr energiyasi: 24 209,3 mln.kVt/soat
Issiqlik energiyasi: 12 349,3 ming Gkal

Moliyaviy maqsad

2024 yil sof foyda
176,1 mlrd. so'm

“Yashil energiya” siyosatiga QTE
lari hajmini kengaytirish orqali
erishish

Ishlab chiqarish samaradorligi

Iste'molchilarni barqaror elektr va
issiqlik energiyasi bilan ta'minlash

Iqtisodiy ta'sir

Moliyaviy manbalarni
barqarorlashtirish

Ekologiya va atrof-muhitga ta'siri

Tabiiy resurslar sarfini kamaytirish,
CO2 emissiya intensivligini
kamaytirish

8.(1) Investitsiya loyihalari

2024-yilda investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish bo'yicha yig'ma manzilliy dastur loyihalari



T/r	Loyiha tashabbuskorlari va loyiha nomi	Tuman va shaharlar nomi	Loyiha quvvati	Amalga oshirish muddati	Loyiha umumiy qiymati mln. doll.	01.01.2024 yilga kutilayotgan qoldiq, mln. doll.	2024 yilda o'zlashtirish prognozi shundan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha					
							Jami, mln. doll.	O'z mablag'lari	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar	Davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari	Tijorat banklari kreditlari
	"Issiqlik Elektr Stansiyalari" AJ				3 746,0	2 903,4	600,4	2,2	441,0	136,1	10,6	10,5
1	Tolimarjon issiqlik elektr stansiyasini umumiy quvvati 900 MVt dan kam bo'lmagan navbatdagi ikki dona bug'-gaz qurilmasini qurish bilan kengaytirish	Nishon tumani	900 MVt	2019-2025 yy.	944,9	613,7	75,8	0,8		64,4	10,6	
2	Toshkent issiqlik elektr markazida quvvati 32 MVt bo'lgan ikkita gaz-turbina qurilmalarini qurish	Xududlararo	64 MVt (2x32)	2019-2024 yy.	115,7	12,4	12,3	0,4		11,9		
3	Elektr energetika sektor salohiyatini rivojlantirish (2 bosqich)	Xududlararo		2020-2026 yy.	284,0	233,1	15,0			15,0		
4	"Navoiy IESda 650 MVt quvvatli uchinchi bug'-gaz qurilmasi qurish	Karmana tumani	650 MVt	2023-2026 yy.	786,7	680,6	45,8	1,0		44,8		
5	Toshkent shahrining 6 ta xududida kogeneratsiya qurilmalarini o'rnatish	Xududlararo	23 MVt 102 Gkall	2023-2025 yy.	50,6	35,0	15,0		15,0			
6	"ISSIQLIK ELEKTR STANSIYALARI" AJ tizim korxonalarining ichki va unga yondosh hududlarida mavjud bo'lgan bo'sh yer maydonlariga yirik quvvatdagi quyosh fotoelektr stansiyalarini qurish	Xududlararo	182 MVt	2023-2025 yy.	182,0	167,0	30,0		30,0			
7	Farg'ona issiqlik elektr markazining 3-son turboagregatida rekonstruksiya ishlarini amalga oshirish.	Farg'ona viloyati, Farg'ona IEM	100 MVt	2024-2025 yy.	15,45	15,45	10,45					10,45
8	"Issiqlik elektr stansiyalari" AJ elektr stansiyalarida jismonan eskirgan elektr uskunalarni yuklanish 35-110-220-500 Kv bo'lgan zamonaviy ochiq taqsimlash qurilmalarini modernizatsiya qilish	Sirdaryo IES, Toshkent IES, Navoiy IES		2023-2028 yy.	288	288	110		110			
9	Qashqadaryo viloyatidagi Mubarak IEMda kogeneratsion elektr qurilmasini o'rnatish (1-bosqich)	Qashqadaryo viloyati	108 MVt	2024-2026 yy.	150	150	75		75			
10	Qashqadaryo viloyatidagi Mubarak IEM kogeneratsion elektr stansiyalarini tashkil etish (2-bosqich)	Qashqadaryo viloyati	108 MVt	2024-2026 yy.	150	150	50		50			

Energiya samaradorligi oshirish va quvvatni 2135 mVt ga oshirish erishiladi, yillik elektroenergiyasi 13907,2 mln kVt. Soat ishlab chiqariladi, 1514,4 mln m3 yillik gaz iqtisodiga erishiladi va 600 yangi ish o'rinlar yaratiladi.








8.(2) Investitsion loyihalar bo'yicha hamkorlar.



 <p>Umumiy qiymati: 944,87 mln. AQSh dollar "Tolimarjon IES" AJda umumiy quvvati 900 bug'-gaz qurilmasi Amalga oshirish muddati: 2019-2025 yy.</p>	 <p>Umumiy qiymati: 180,0 mln. AQSh dollar Muborak IEMda ikkita gaz-turbine o'rnatish (1-bosqich) Amalga oshirish muddati: 2023-2026 yy.</p>	 <p>Umumiy qiymati: 182,0 mln. AQSh dollar "IES" AJ tizim korxonalarining ichki va yondosh hududlarga yirik quvvatdagi quyosh foto elektr stansiyalarini qurish Amalga oshirish muddati: 2023-2025 yy.</p>	 <p>Umumiy qiymati: 50,6 mln. AQSh dollar Toshkent shahrining 6 ta hududida kogeneratsiya qurilmalarini o'rnatish Amalga oshirish muddati: 2023-2024 yy.</p>
 <p>Umumiy qiymati: 240,8 mln. AQSh dollar Toshkent shahrining 4-son issiqlik markazi hududida kogeneratsiya qurilmalarini o'rnatish Amalga oshirish muddati: 2023-2025 yy.</p>	 <p>Umumiy qiymati: 15,45 mln. AQSh dollar Farg'ona IEM 3-sonli turbogeneratorida rekonstruksiya ishlarini amalga oshirish Amalga oshirish muddati: 2023-2024 yy.</p>	 <p>Umumiy qiymati: 115,76 mln. AQSh dollar "Toshkent IEM" AJda umumiy quvvati 32 MVtga teng bo'lgan 2 ta turbine qurilmasi Amalga oshirish muddati: 2019-2024 yy.</p>	 <p>Umumiy qiymati: 150,0 mln. AQSh dollar Muborak IEMda ikkita gaz-turbine o'rnatish (2-bosqich) Amalga oshirish muddati: 2023-2026 yy.</p>
 <p>Umumiy qiymati: 280,0 mln. AQSh dollar Toshkent, Sirdaryo, Navoiy IESlar hamda Toshkent, Muborak, Farg'ona IEMlar va Taxiatosh IESdagi mavjud ochiq taqsimlash qurilmalarini modernizatsiya qilish (1- bosqich) Amalga oshirish muddati: 2024 yy.</p>	 <p>Angren IES AJda quvvati 300 MVt dan bo'lgan ikkita energoblok qurilmasini qurishi</p>	 <p>Toshkent shahrining 1, 3, 5, 6, 7, 8, 9, 10-sonli issiqlik markazlari hududida kogeneratsiya qurilmalarini o'rnatish</p>	 <p>ISSIQLIK ELEKTR STANSİYALARI AJ</p>




















8.(3) Investitsiya loyihalari-Kogeneratsiya



Loyiha amalga tashabbuskori:	“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ	
Loyiha amalga oshiriladigan yil:	2023	2024
Loyihani amalga oshirish manzili:	 Toshkent shahar, Chilonzor tumani 7-mavze	Toshkent shahri 6 ta hududi
Loyiha umumiy qiymati (<i>mlrd. so'm</i>):	 120,0	862,2
Asosiy qurilmalar ishlab chiqaruvchilari:	Italiyaning “CTM” kompaniyasi 	Italiyaning “CTM” kompaniyasi Germaniyaning “MWM” kompaniyasi  
Yaratiladigan yangi ish o'rinlari:	 13 ta	100 ta
Loyihaning umumiy quvvati:	 29,6 MVt [4,6 MVt e/e quvvati]	172,2 MVt [29,9 MVt e/e quvvati]

8.(4) Raqamli transformatsiya(DX)-ERP ("Enterprise Resource Planning") LOYIHANI AMALGA OSHIRISH MUDDATLARI



 Loyiha bosqichi	2023 yil						2024 yil						
	Apr	May	Iyun	Iyul	Avgust	Sentabr	Oktabr	Noyabr	Dekabr	Yanvar	Fevral	Mart	Apr
 1-bosqich. Loyiha bo'yicha tashkiliy tadbirlar	 17.04.-25.04. 												
 2-bosqich. Tayyorgarlik	 17.04.-05.06. 												
 3-bosqich. Kontseptual loyihalashtirish	 17.04.-28.08. 												
 4-bosqich. Amalga oshirish va sinovdan o'tkazish	 13.07.-4.11. 												
 5-bosqich. Yakuniy tayyorgarlik							 03.10.-26.12.						
 6-bosqich. Sanoat ish rejimi tizimiga o'tkazish							 04.12.-24.02.						

8.(5) Qayta tiklanuvchi energiya manbalari-1



2024 YILDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI VA ENERGIYA TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNI JADALLASHTIRISH VA YAQIN KELAJAKDA SOTISH CHORA-TADBIRLARI REJASI BAJARILISHINI TA'MINLASH



Quyosh panellari
kVt

Quyosh suv
isitgichlari

Quyosh panelli
yoritish chiroqlari

Chastota
o'zgartirgich
qurilmasi

2023 yil kutilish

Umumiy quvvat
15 580

129 dona
(25 800 litr
hajmdagi)

400 ta

137 ta

6 mln kVt.soat elektr energiya ishlab chiqariladi

2023 yil



25 mln kVt.soat elektr energiya ishlab chiqariladi

660 Gkal issiqlik energiya ishlab chiqariladi



920 Gkal issiqlik energiya ishlab chiqariladi

650 ming m3 tabiiy gaz iqtisod qilinadi



2,6 mln m3 tabiiy gaz iqtisod qilinadi

8.(6) Qayta tikllanuvchi energiya manbalari



"Issiqlik Elektr Stansiyalari" AJ tizim korxonalarida o'rnatilgan muqobil energiya manbalari qurilmalari to'g'risida
MA'LUMOT



No	Korxonona nomi	Quyosh fotoelektr stantsiyasi (QFES) o'rnatilgan quvvat KVts
1	"Sirdaryo IES"	1 363
2	"To'raqorg'on IES"	4575
3	"Talimarjon IES" AJ	1884
4	"Farg'ona IEM"	3090
5	"Toshkent IEM"	530
6	"Muborak IEM"	1220
7	"Angren IES"	100
8	"O'zenergosozlash" MChJ binosi	30
9	"IES" AJ markaziy apparati binosi	70

9. Biznes modeli va strategiyasi uchun "Issiqlik Elektr Stansiyalari" AJning muxim masalalari



Inson resurslari



- Doimiy ravishda kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish
- Yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish
- iqtidorli xodimlar zaxirasini yaratish



Ekologiya va atrof muhit muhofazasi



- Stansiyalarni o'z ehtiyojlariga sarflanadigan energiya uchun qayta tiklanadigan energiya manbalaridan keng foydalanish
- Karbonat angidrid (CO₂) va atrof-muhitga ta'sir qiluvchi moddalarning tashlamalarini kamaytirish
- "ESG" standartlarini joriy etish



Korporativ boshqaruv



- Korporativ boshqaruvni takomillashtirish.
- Boshqaruvning barcha darajalari uchun asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini (KPI) ishlab chiqish



Inson huquqlari



- Xodimlarni, ularning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar bir xil huquq va erkinliklarini ta'minlash.
- Xodimlarning salomatligi va xavfsizligini ta'minlash



Jamiyat



- IES AJ faoliyati haqida ma'lumotlarni oshkor qilish.
- Yoshlar forumlari, sport tadbirlari, ilmiy anjumanlar va obodonlashtirish ishlarida ishtirok etish

9.(1) Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi -1



“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ hamda Yevropa taraqqiyoti va tiklanish banki bilan hamkorlikda Jamiyat va uning tizim korxonalarining barqaror va samarali ishlashini ta'minlash maqsadida atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy masalalar va boshqaruvni xalqaro tamoyillarga asoslangan holda tashkil qilish maqsadida ESG (Environmental, Social, Governance) standartini joriy qilish ishlari amalga oshirilmoqda.



ENVIRONMENTAL
(EKOLOGIYA)

- *Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish.
- *Atmosfera havosining sifatini ta'minlash.
- *Shovqin va tebranishlarni kamaytirish.
- *Chiqindilarni boshqarish.
- *Yashil energetika va energiya samaradorlik.
- *Bioxilma-xillikni muhofaza qilish.
- *Suvni muhofaza qilish va oqava suvlarni boshqarish.
- *Ifloslangan hududlarni boshqarish.
- *Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi innovatsiyalar.
- *Ta'minot zanjiri barqarorligi va yetkazib beruvchilar bilan muloqot.



“Issiqlik elektr stansiyalari” AJda ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish va energiya samaradorligini oshirish maqsadida “2020-2030 yillarda O'zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta'minlash Konsepsiyasi” ishlab chiqilgan bo'lib, unga asosan 2030 yilga borib, elektr energiyasi va issiqlik ishlab chiqarishning yangi texnologiyalarini qo'llash orqali atmosfera havosiga ifloslantiruvchi tashlamalar (shu jumladan issiqxona gazlari CO2) hamda yer osti/usti suvlariga oqava suvlarning ta'sirini mavjud vaziyatga nisbatan 20-30 foizga qisqartirish ko'rsatkichlariga erishish maqsadlari qo'yilgan.

ESG



SOCIAL
(IJTIMOIY)



GOVERNANCE
(KORPORATIV
BOSHQARUV)

- *Korrupsiya va poraxo'rlikni oldini olish.
- *Barqaror moliyalashtirish.
- *Davlatga qaytarish (dividendlar, soliqlar va yig'imglar).
- *Faoliyatni uzluksizligini boshqarish.
- *Boshqaruv tuzilmasi va mukofotlash.
- *Kuzatuv kengashi va uning mustaqilligi.
- * (No) Moliyaviy hisobot.



- *Xodimlarning xavfsizligi va salomatligi.
- *Ish beruvchining tashkiliy madaniyati va imijini rivojlantirish.
- *Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish.
- *Jamoatchilik uchun ochiqlik va jamoalar bilan hamkorlik.
- *Xodimlar uchun teng imkoniyatlar, kamsitmaslik va inson huquqlarini ta'minlash.
- *Homiylilik ko'rsatilishi va ijtimoiy faoliyat.
- *Xodimlar farovonligi (xodimlarning malakasi va kompetensiyasi, kirishimliliigi, mukofotlanishi, qo'shimcha imtiyozlar).



9.(2) Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi - 2

CO2 kamaytirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar

“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ Parij kelishuvini amalga oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi tomonidan o‘z zimmasiga olgan barcha majburiyatlarni bajarib, qo‘yilgan maqsad va vazifalarga erishish yo‘lida ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Shu o‘rinda dasturlar ishlab chiqilib, unga ko‘ra O‘zbekiston 2030 yilga borib atmosfera havosiga tashlanuvchi ifloslantiruvchi moddalar miqdorini 30 foizga qisqartirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Jumladan:

1. 2019-2022 yillar davomida To‘raqo‘rg‘on IES, Navoiy IES, Taxitosh IES va Farg‘ona IEMlarda zamonaviy bug‘-gaz va kogeneratsion qurilmalarini ishga tushirilishi orqali 2018 yilga nisbatan ifloslantiruvchi moddalarning atmosfera havosiga tashlanishi Navoiy IESda qariyb 1500 tonnaga, Taxiatosh IESda qariyb 500 tonnaga, Farg‘ona IEMda qariyb 100 tonnaga, yangi To‘raqo‘rg‘on IESda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash natijasida qariyb 1500 tonnaga kamaytirilishiga erishildi.
2. Jamiyat tizim korxonalariga umumiy quvvati 9,6 MVt bo‘lgan quyosh foto elektr stansiyalari o‘rnatilishi natijasida xozirgi kunga qadar 7,0 mln. kVt.soat elektr energiyasi hosil qilinib, 2 mln m3 tabiiy gaz iqtisodiga erishildi va atmosfera havosiga chiqariladigan ifloslantiruvchi moddalar hajmini 2,2 foizga qisqarishiga olib keldi.

“Issiqlik Elektr Stansiyalari” AJda joriy qilingan standartlar



Ekologiya va atrof-muhit muhofaza qilishning asosiy chora-tadbirlari

- ➔ * Ishlab chiqarishda ekologik monitoring va nazorat
- ➔ * Yer resurslarni muxofaza qilish
- ➔ * Energotejamkorlik

- ➔ * Ekologik normativlarni o‘rnatilgan tartibda ishlab chiqish va ularga amal qilish
- ➔ * Chiqindilarni saralash va hisobini yuritish
- ➔ * Ko‘kalamzorlashtirish

Strategik reja



Paragraf	birliqi	2026-y.	2030-y.	2050-y.
1. CO2 tashlamalarini kamaytirish	%	20	30	45-50
2. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va qayta tiklanadigan energiya manbalariga o‘tish	%	30	40	75-80
3. Ifloslantiruvchi tashlamalar va oqova suvlarni kamaytirish (ekologik toza texnologiyalarni joriy etish)	%	40	50	85-90
4. Atmosfera havosini nazorat qilish maqsadida statsionar kuzatuv punktlarini o‘rnatish	%	50	75-80	100
5. Ustivor statsionar (tashkillashtirilgan) manbalardan atmosfera havosiga tashlamalarni va ifloslanish manbalaridan suv havzalariga oqovalarni tahlil qilish uchun avtomatik tizimlarni joriy qilish	%	50	75-85	100
6. Yashil makon umummilliy loyihasini amalga oshirish	%	75	85	100

9.(3) Inson resurslari




Gender tengligi va xilma-xillik:

- Gender tengligi – Gender tengligini ta'minlash bo'yicha ish rejasi, mas'ul bo'limlar, budjet, muddatlar va ko'rsatkichlar belgilangan.
- Xodimlar, ularning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar bir xil huquq va erkinliklarga ega.

Inson resurslarini rivojlantirish siyosati:

- Xodimlarning tajriba va qobiliyatlarini rivojlantirishga sharoit yaratish, ularning martaba va salohiyatini oshirishga ko'maklashish.
- Xodimlar ish faoliyatini adolatli baholash tizimini joriy etish



Inson resurslarini rivojlantirish rejasi:

- Tashkiliy strategik reja. Tashkilot va uning bo'linmalarini boshqarishning maqsadlari va mezonlarini shakllantirish.
- Ish faoliyatining sifati. Xodimlar uchun faoliyat maqsadlarni va ularni baholashning miqdoriy mezonlari ishlab chiqish (5-10 yil uchun).
- Tashkiliy va ijtimoiy rivojlanish yillik rejasi. Har bir xodimni shaxsiy rivojlantirish yillik rejasini shakllantirish. Tashkilotning yillik rejasi va ichki me'yoriy hujjatlar (reglament). Samarali mehnat faoliyatini va yaxshi ijtimoiy-psixologik muhitni tashkil etish.
- Ijtimoiy so'rov natijalari va xodimlarning shaxsiy ishlari. Xodimlarning shaxsiyatini rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar (tadbirlar, so'rovlar, maslahatlar, tavsiyalar, shaxsiy yutuqlarni baholash va boshqalar).
- Kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish uchun hujjatlar va IES AJning yillik rejalarini (5 yil uchun). Xodimlarni attestatsiyadan o'tkazishda xodimlarning hayotiy maqsadlariga erishishini baholash (3-5 yilda 1 marta).



9.(4) Xavfsizlik va ishchilar himoyasi himoyasi



Joriy qilingan standartlar



Davriy tibbiy ko'riklarni o'tkazish;



Xodimlarning salomatlik uchun asosiy tadbirlar

Shaxsiy himoya vositalari, zararli ish sharoitlarda ishlaydigan ishchilar uchun sut va sut mahsulotlari, himoya vositalari bilan ta'minlash;



Xodimlarning sport va dam olish faoliyatini rag'batlantirish.



Xavfsizlik choralari

Xodimlarni xavfsizlik qoidalariga muntazam ravishda o'qitish va ularning malakasini oshirish;



Xavfsizlik uchun mumkin bo'lgan xavflarni aniqlash va ularni yumshatish choralarini ko'rish;

Xavfsizlik va salomatlik siyosati



Xodimlarimizning xavfsizligi va salomatligi biznes faoliyatining asosidir.



Baxtsiz hodisalar va jarohatlar oqibatlarini bartaraf etishdan ko'ra, mehnatni muhofaza qilish va mehnat sharoitlarini yaxshilashga investitsiya qilish osonroq.



Shaxsning shaxsiy va jamoaviy xavfsizlik haqidagi qarashlarini qadrlash. Korxonamizdagi har bir xodimimizning xavfsizligi bebahodir, biz har bir xodimning sog'lig'i haqida qayg'uramiz.



Ishlab chiqarishda shikastlanish hamda favqulodda vaziyatlarni oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish

9.(5) Mahalliy jamiyat bilan hamkorlik



9.(6) Mahalliy jamiyat bilan hamkorlik



Ijtimoiy siyosat 2023 yilda amalga oshirilgan ishlar

-Qoraqalpog'iston Respublikasi Shumanay tumanida yangi axborot-kutubxona markazi ishga tushirildi

-Toshkent shahrining Yashnobod tumani "Alimkent" ko'chasi hududida zamonaviy bog' barpo etildi.

-Nishon tumanida 8 km yo'l ta'mirlandi.

-Nishon tumani aholisi uchun ichimlik suvi tortildi



9.(6-1) "IES" AJ faoliyatidan lavhalar




9.(6-2) "Issiqlik Elektr Stansiyalari" AJ faoliyatidan suratlar



9.(7) Korporativ boshqaruv



1. Korporativ boshqaruv tizimi



2. Korporativ boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha hamkorlar

MHXS asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazildi va ijobiy auditorlik xulosalari olindi.

Deloitte.

Xaridlar auditini jamiyatlarda korporativ firibgarlik va korrupsiyani aniqlash maqsadida xalqaro kompaniyasining "Forenzik tahlil" xulosalari olindi va Xalqaro kredit reyting olish jarayonida konsultantlik xizmatlarini foydalanildi.



Korxonaga korporativ kredit reyting berish xizmatlarini ko'rsatgan va 2023 yil 18 yanvar kuni jamiyatiga BB- darajali kredit reytingi olingan.

Fitch Ratings

Operatsion samaradorlikni oshirish strategiyasi ishlab chiqildi

McKinsey & Company

ISO 14001, 45001, 50001, 27001 sertifikatlari olinadi

CERT International

3. 2023 yilda "Issiqlik Elektr Stansiyalari" AJga berilgan aktivlar (ulushlar)

"Toshkent issiqlik markazi" MChJ - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13.01.2023-yildagi tegishli qarori

"Angren IES" AJ - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.01.2023-yildagi tegishli qarori

4. Ichki hujjatlar

Korporativ boshqaruvga tegishli ichki hujjatlar Korporativ boshqaruv kodeksi; Yagona aksiyador to'g'risidagi Nizom; Ijroiya organi to'g'risidagi Nizom; Boshqaruv siyosati va boshqalar.

Korporativ boshqaruv kodeksining qisqacha mazmuni Kodeks, samarali boshqaruvning asosiy tamoyillari, jumladan, hisobdorlik, oshkorlik, ishonchlilik, yuksak ma'naviy-axloqiy tamoyillarga rioya qilish, hamda IES AJning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan.

5. Ichki nazorat

Komplaens Komplaens tizimi joriy etildi va muvofiqlik bo'limi tashkil etildi

Qo'mitalar IES AJ Kuzatuv kengashi huzurida 4 ta qo'mitasi tashkil etildi (kuzatuv kengashi a'zolaridan iborat).

9.(8) Biznes asoslarini mustahkamlash - Risklarni boshqarish



Asosiy risklar toifasi

Boshqaruv risk

- Qoidalar/huquqiy o'zgarishlar
- Axloqiy/Jinoiy
- Kiberxavfsizlik
- Tabiiy hodisalar bilan bog'liq (falokat, iqlim o'zgarishi)
- Asosiy vositalar buzilishi
- Inson resurslari

Moliyaviy risk


- Strategik va investitsion
- Likvidlilik
- Yoqilg'i xaridi
- Valyuta kursi

Strategik risk







- CO2 ni bajaraolmaslik
- Boshqaruv strategiyasi

Risklarni baholash

“Issiqlik Elektr Stansiyalari” AJ faoliyat jarayonida yuzaga keladigan risklarni aniqlash va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarining og'irligini aniqlash tizimli ravishda amalga oshiriladi



10. Moliyaviy ko'rsatkichlar*




*-Ko'rsatkichlar kamayishi sababi jamiyat tarkibidagi 3 ta korxonalar ishonchli boshqaruvga berilishi bilan bog'liq


11. Faoliyat va ko'rsatkichlar*




ELEKTR ENERGIYASINI ISHLAB
CHIQRISH, MLN KVT/SOAT*




YOQILG' I SARFI, G/KVT/SOAT




O'Z EHTIYOJLARI UCHUN ELEKTR
ENERGIYASI SARFI, %




RAHBAR LAVOZIMIDAGI
AYOLLAR SONI*



XODIMLARNING
QO'NIMSIZLIGI DARAJASI, %



MALAKASI OSHIRILGAN TEHNIK
MUHANDIS XODIMLAR SONI



*-Ko'rsatkichlar kamayishi sababi jamiyat tarkibidagi 3 ta korxonalar ishonchli boshqaruvga berilishi bilan bog'liq

12. Moliyaviy ma'lumotlar

12.(1) Foyda yoki zarar va boshqa to'liq daromad to'g'risidagi konsolidatsiyalangan hisobot



	2022	mln. so'm 2021
Davomiy operatsiyalar		
Daromad	15,442,683	14,013,998
Tannarx	(13,391,768)	(12,615,126)
Sof foyda	2,050,915	1,398,872
Umumiy va ma'muriy xarajatlar	(763,253)	(502,903)
Kutilayotgan kredit yo'qotishlari	(62,323)	(52,223)
Sho'ba korxonani chiqib ketishidan zarar	(71,436)	-
Boshqa operatsion daromadlar	106,094	39,780
Assotsiatyialshgan korxonaning foyda/zararining ulushi	20,547	(6,010)
Operatsion foyda	1,280,547	877,516
Moliyaviy daromad	145,491	38,898
Moliyaviy xarajatlar	(544,314)	(382,664)
Valyuta kursidagi daromad/(zarar),	763,426	520,009
Daromad solig'idan oldingi foyda/(zarar)	1,645,510	1,053,759
Daromad solig'i (xarajat) / foyda	(283,616)	(72,994)
Davom etilayotgan faoliyatdan yil uchun foyda/(zarar).	1,361,534	980,765
To'xtatilgan operatsiyalar		
To'xtatilgan faoliyatdan yil davomida yo'qotish	376,325	1,006,306
Yil davomida foyda/(zarar).	1,734,075	1,981,952
Yil davomidagi foyda/(zarar) va jami umumiy foyda/(zarar):		
- Aksiyador	1,734,075	1,981,952
- Nazorat qilinmaydigan ulush	3,784	5,119
	1,737,859	1,987,071

12.(2) Moliyaviy holat to'g'risidagi konsolidatsiyalangan hisobot



AKTIVLAR	31-dekabr 2022	31-dekabr 2021
Aylanma aktivlar:		
Asosiy vositalar	23,727,258	37,577,273
Investitsiyalar	43,364	17,782
Boshqa uzoq muddatli aktivlar	268,539	342,579
	57,222	
	24,096,383	37,937,634
Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari	377,543	62,680
Savdo va boshqa debitorlik qarzlari	8,288,927	7,393,231
Invenlar	1,039,346	905,496
Joriy daromad solig'i aktivlari	342,290	75,799
Berilgan kreditlar	2,151	1,703
Cheklangan naqd pul	77,884	161,677
	10,088,141	8,600,586
Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar	16,023,621	45,074
	50,208,145	46,583,294
JAMI AKTIVLAR		
XUSUSIY KAPITAL		
Ustav kapitali	13,243,391	13,245,770
Qo'shimcha to'langan kapital	1,635,960	1,632,004
Taqsimlanmagan foyda	(4,501,248)	(5,867,226)
Aksiyadorga tegishli kapital	10,396,103	9,010,548
Nazorat qilinmaydigan ulush	14,655	19,119
	10,410,758	9,029,667
JAMI XUSUSIY KAPITAL		
MAJBURIYATLAR		
Uzoq muddatli majburiyatlar:		
Uzoq muddatli qarzlari	20,356,412	23,866,434
Kechiktirilgan soliq majburiyatlari	450,421	2,067,022
Boshqa uzoq muddatli majburiyatlar	122,957	103,911
	20,929,790	26,037,367
Joriy majburiyatlar:		
Savdo va boshqa kreditorlik qarzlari	3,628,931	2,257,954
Qisqa muddatli qarzlari	4,320,652	9,032,198
Joriy daromad solig'i majburiyatlari	965	88,941
To'lanadigan soliqlar, daromad solig'idan tashqari	146,805	122,817
	8,097,353	11,501,910
To'g'ridan-to'g'ri sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar bilan bog'liq majburiyatlar	10,770,244	14,350
	39,797,387	37,553,627
JAMI MAJBURIYATLAR		
JAMI XUSUSIY KAPITAL VA MAJBURIYATLAR	50,208,145	46,583,294

12.(3) Pul oqimlari to'g'risidagi konsolidatsiyalangan hisobot



	2022	mln. so'm 2021
Operatsion faoliyat pul oqimlari		
Mijozlardan tushgan naqd pul tushumlari	12,749,536	13,659,691
Yetkazib beruvchilar va xodimlarga to'lanadigan naqd pul	(11,185,667)	(11,990,913)
Operatsiyalardan olingan naqd pul	266,747	38,178
Operatsiyalarda to'langan naqd pul	(333,563)	(1,042,860)
To'langan daromad solig'i	(551,059)	(210,450)
Operatsion faoliyatdan olingan sof pul mablag'lari	945,996	453,646
Investitsion faoliyatdan olingan pul oqimlari		
Nomoddiy aktivlar va asosiy vositalarni sotib olish	(640,556)	(1,109,910)
Asosiy vositalarni tasarruf etishdan olingan daromadlar	-	-
Investitsiyalarni tasarruf etishdan olingan daromadlar	-	-
Foyda va zarardagi o'zgarishlarni aks ettirgan holda adolatli qiymatda(FVTPL) investitsiyalarni sotib olish.	-	-
Berilgan kreditlarning o'zgarishi	(614)	1,654
Cheklangan naqd pulning o'zgarishi	43,793	(8,685)
Olingan foizlar	1,580	865
Olingan dividendlar	4,643	-
Investitsiya faoliyatida foydalaniladigan pul mablag'lari	(551,154)	(1,116,076)
Moliyaviy faoliyatdan olingan pul oqimlari		
Qarz olishdan olingan daromadlar	2,341,675	2,620,893
Qarzni qaytarish	(2,062,858)	(1,545,703)
Qo'shimcha to'langan kapitaldan tushumlar	-	6,318
To'langan dividendlar	(20,088)	(44,255)
To'langan foizlar	(378,206)	(340,996)
Moliyaviy faoliyatdan olingan pul mablag'lari	(119,477)	696,257
Valyuta kursi o'zgarishining pul mablag'lar va ularning ekvivalentlariga ta'siri	(502)	(4,939)
Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlarini o'sishi/(kamayishi).	274,863	28,888
Yil boshidagi pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari	62,680	33,792
Yil oxiridagi pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari	337,543	62,680

12.(4) Kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi konsolidatsiyalangan hisobot



	Ustav kapitali	Qo'shimcha to'langan kapital	(Yig'ilgan defitsit)/ taqsimlanmagan foyda	Aksiyadorga tegishli kapital	Nazorat qilinmaydigan ulush	Jami kapital
2021-yil 1-yanvarda	13,245,770	1,780,766	(7,804,262)	7,222,274	14,000	7,236,274
Chiqarilgan ustav kapitali	-	(150,777)	-	(150,777)	-	(150,777)
Aksiyadorning hissasi	-	6,318	-	6,318	-	6,318
Yilning zarar va umumiy daromadi	-	3,232	-	3,232	-	3,232
Dividendlar	-	-	1,981,952	1,981,952	5,119	1,987,071
Sho'ba korxonalarini tasarruf etish	-	-	(44,916)	(44,916)	-	(44,916)
	-	(7,535)	-	(7,535)	-	(7,535)
2021-yil 31-dekabrda	13,245,770	1,632,004	(5,867,226)	9,010,548	19,119	9,029,667
Aksiyadorning naqd pul hissasi	-	21,956	-	21,956	-	21,956
Bosh kompaniya va sho'ba korxonaning birlashishi	(2,379)	-	-	(2,379)	-	(2,379)
Yil uchun foyda va umumiy daromad	-	-	1,734,075	1,734,075	3,784	1,737,859
Dividendlar	-	-	(368,097)	(368,097)	-	(368,097)
Sho'ba korxonalarini chiqib ketishi	-	-	-	-	(8,248)	(8,248)
2022 yil 31 dekabrda	13,243,391	1,653,960	(4,501,248)	10,396,103	14,655	10,410,758